

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA**

**SURXONDARYO VILOYATI ERGONIMLARINING**  
**LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

UO‘K: 811.512.133'373.2(575.151):008

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Kultayeva Fazilat Baxtiyarovna**

Surxondaryo viloyati ergonimlarining  
lingvomadaniy xususiyatlari ..... 3

**Култаева Фазилат Бахтияровна**

Лингвокультурологические особенности эргонимов Сурхандарьинской  
области..... 25

**Kultaeva Fazilat Bakhtiyarovna**

Linguoculturology features of ergonyms of the Surkhandarya region ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 54

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA**

**SURXONDARYO VILOYATI ERGONIMLARINING  
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3709 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tersu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Maxmaraimova Shoxista Tuxtashevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yuldosheva Nilufar Ergashevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Abdiyev Murodqosim Bolbekovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «5» 09 soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (312 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «24» 08 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «24» 08 dagi 64 raqamli reyestr bayonnomasi).



  
**P.O. Bakirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, f.f.d., professor

  
**Z.B. Umurqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, f.f.d., dotsent

  
**Sh. Yoqubov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.f.n., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida soʻnggi vaqtlarda yangi iqtisodiy rivojlanish usul va vositalarining jadal taraqqiyoti ergonimlarga nisbatan favqulodda lingvomadaniy asosli, pragmatik ahamiyatli fenomen sifatida qarash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Natijada turli vazifaviy ixtisoslikdagi korxonalar (taʼlim muassasalari, biznes uyushmalari, savdo obyektlari, madaniyat, sport inshootlari, sayyohlik agentliklari va boshqalar) ning ijtimoiy-iqtisodiy omillar sabab raqobatga chidamli, jozibador onimlari – lisoniy belgisining ichki va tashqi shaklida voqelangan madaniy axborotning imkoniyatini yangi ilmiy paradigmalarda kesimida chuqur oʻrganishga bagʻishlangan tadqiqotlar soni ortdi.

Dunyo onomasiologiyasi va onomastikasida antroponim va toponimlarga onimlarning markaziy toifasiga kiruvchi unsurlar deya, ergonimlarga esa toponimik toifaning periferik (chekka) sathi sifatida qarash mavjud. Shunga qaramasdan, ergonimlar oʻzida yasalishning turli koʻrinishlarini jamlay oluvchi, madaniy axborotni turli shakliy yechimlar (harfiy, grafik-chizmalik, ranglar palitrasi, raqamlar, ramziy logotiplar) da uzata oluvchi va nihoyat, madaniyatlar integratsiyasining eng yuqori darajasini namoyon eta oluvchi onim sifatida zamonaviy toponimik manzarada pragmatik samarador, oʻzgarishlarga taʼsirchan, dinamik oʻzgaruvchan birlik sifatida eʼtibor qozonmoqda. Binobarin, undagi vizual-gibrid tabiatga lingvistik munosib baho berish hamda madaniyatlar kesishuvidagi “yashovchanlik qobiliyati” ning konseptual asoslarini ochib berishni maqsad qilgan tadqiqotlarga talab yuqoriligicha qolmoqda.

Oʻzbek tilshunosligida mustaqillik davrida barcha sohalar qatori nomshunoslik, toponimikaga jiddiy eʼtibor berildi: Toponimik komissiyalar, markazlashtirilgan Toponimik xizmat tashkil etilib, joy nomlarini saqlash, oʻzgartirish hamda ilmiy-amaliy tahlil etish jarayonlarini qamrab olgan maxsus qonunlar qabul qilindi<sup>1</sup>. Zotan, “Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat oʻz milliy manfaatlarini taʼminlash, bu borada, avvalo, oʻz madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim”<sup>2</sup>. Oʻlkamiz geoiqtisodiy, milliy-madaniy manzarasiga oid ergonimlar tadqiqi xalqimiz madaniyati, urf-odatlarini, eʼtiqodiy-aqidaviy qarashlari, turmush tarzi, oʻzga madaniyatlar bilan aralashuvi haqida keng qamrovli tadqiqotlar olib borishga asos boʻla oladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили тўғрисидаги қонуни”. – Т.,1989.; Географик объектларнинг номлари тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. – Т., 2011. 12 октябрь (Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. 2011 й., 41-сон. 448-модда)

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқейини tubдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // <http://lex.uz/docs/4561730>.

PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** B.A.Larin, Y.A.Yakovleva, A.M.Yemelyanovalarning ilmiy xulosalarida shahar tilining unsuri sifatida qayd etilgan ergonimlar struktur-semantik, derivatsion, lingvokognitiv, lingvomadaniy, pragmatik va lingvopoetik jihatdan o‘rganilgan. Mazkur mavzu XX asrning 60-yillarida M.L.Shetin, B.Z.Bukchina va G.A.Zolotova, A.V.Superanskaya, S.A.Koporskiy, M.N.Morozova, L.V.Shetin, V.D.Bondaletov kabi tilshunoslar tadqiqotlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa, XX asrning oxiri – XXI asr boshlaridan bu mavzuning yana-da dolzarblashgani A.V.Bespalova, S.V.Zemskova, E.S.Otin, T.N.Aliyeva, N.V.Nosenko, F.F.Alistanova, M.G.Kurbanova, E.S.Butakova, A.M.Yemelyanova, Man Shu, M.V.Kitaygorodskaya, I.V.Kryukova, M.Y.Kryuchkova, N.N.Rozanova, T.P.Romanova, Z.T.Tanaeva, A.K.Galkovskiy ishlarida isbotini topdi<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Подольская Н.В. Словарь русской онамастической терминологии. – М.: Наука, 1978. — 200 с.; Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. – М.: Просвещение, 1977. – 224 с.; Яковлева Е.А. Ономастическое пространство как составная часть «языка города» и его основные единицы (на примере эргонимов г. Уфы)//Вестник Башкирского университета. 2006. – № 3. – С. 90– 93; Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы: Автореф. дисс. ...канд. фил. наук. – Уфа, 2007. – 24 с.; Шимкевич Н.В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. ...канд филол. наук. – Екатеринбург, 2002. – 23 с.; Алиева Т.Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX–XXI веков: семантико-деривационный аспект: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. – Спб., 2003. – 34 с.; Крючкова М.Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: Дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2003. – 199 с.; Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. ...д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004. – 228 с.; Трифонова Е.А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: Дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – 24 с.; Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Уфа, 2007. – 24 с.; Носенко Н.В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007. – 22 с.; Танаева З.Т. Аббревиатурные эргонимы г.Махачкалы как многоуровневая система: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Махачкала, 2012. – 22 с.; Курбанова М.Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика: Дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – 191 с.; Кривицкая А.В. Эргонимы в лингвокультурном пространстве города (на материале питейных заведений Республики Башкортостан): Дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2023. – 231 с.; Питина С.А. Лингвокультурологический анализ урбанонимов (на примере названий казино Лас-Вегаса) // Вестник ЧелГУ. 2013. № 4 (295). – С. 86–89. <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokulturologicheskiy-analiz-urbanonimov-na-primerenazvaniy-kazino-las-vegasa>; Кривицкая А.В. Тюркские онимы как лингвокультурологический маркер городов полиэтнической республики//Ислам в России: история, культура, экономика: XI Международная тюркологическая конференция (г. Елабуга, 13 мая 2022 года). – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2022. – С. 307-311; Юдина Т.М.

O‘zbek tilshunoslari D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva, M.Saparniyazovalar tomonidan ergonimlarning lingvomadaniy va lingvopragmatik jihatlari ochib berilgan. J.N.Siddikov esa o‘zbek va ingliz tillaridagi ergonimlarni lingvistik kesimda o‘rgandi<sup>4</sup>. Ammo O‘zbekiston hududiy ergonimikasining lingvomadaniy manzarasini yorituvchi ishlar hozircha yetarli emas. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi madaniyatlar chatishuvi sharoitida alohida hududga xos ergonimlarning lingvomadaniy voqelanish imkoniyatlarini yoritish, ergonimlar shakllanishining ortologik talablarga, so‘z yasalish qonuniyatlariga muvofiqligi, ularda aks etgan g‘arb madaniyati va ommaviy madaniyatga daxldor axborotning hududiy madaniyatga ta’sirini konseptual asoslarda o‘rganish bilan belgilanadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №25-1 “O‘zbek tilshunosligi:

---

Эргонимы города Архангельска в лингвокультурном аспекте // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2017. № 9 (75): в 2-х ч. Ч. 1. – С. 200–203; Голомидова М.В. Урбанонимы в контексте культуры современного города // Ежегодник НИИ русской культуры УрГУ 1994. - Екатеринбург, 1995. – С. 76-86; Григорьева Н.О. Проекция лингвокультуры: эргонимы в коммуникативном пространстве города // Динамика языковых и культурных процессов в современной России. – СПб.; ОПРЯЛ, 2016. №5. – С.142-145; Романова Т.П. Этнокультурный маркер в логотипах российских фирм как рекламный стимул адресата//Медиалингвистика. – СПб.; СПГУ, 2018. – Т. 5. – №4. – С. 521-533; Щетинин Л.М. Имена и названия. – Ростов-на-Дону, 1968. –215 с.; Букчина Б.З., Золотова Г.А. Слово на вывеске // Русская речь. 1968. 3. – С. 49-56; Суперанская, А.В. Общая теория имени собственного. – М., 1973. – 366 с.; Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М., 1983. – 224 с.; Земскова С.В. Лексико-семантический и словообразовательный анализ эргонимов г.Тольятти Самарской области Российской Федерации: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самара, 1996. – 20 с.; Носенко Н.В. Названия городских объектов Новосибирска: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Дисс. ...канд. филол. наук. – Новосибирск, 2007. – 218 с.; Курбанова М.Г. Эргонимы современного русского языка: Семантика и прагматика. Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – 191 с.; Алистанова Ф.Ф. Обновленная лексикологическая классификация эргонимов-неологизмов // Мир науки, культуры, образования. 2015. № 4. – С. 265–268; Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтнического города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Дисс. ...канд. филол. наук. – Уфа, 2007. – 170 с.; Алистанова Ф.Ф. Эргонимы современного русского языка как микросистема: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2011. – 23 с.; Алистанова Ф.Ф. Особенности образования современных эргонимов лексико-синтаксическим способом и аббревиацией // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2017. № 5-1. – С. 56 – 58; Курбанова М.Г. Эргонимы современного русского языка: Семантика и прагматика: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – 232 с.; Бутакова Е.С. Эргонимы иноязычного происхождения в коммуникативном пространстве города: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Томск, 2013. – 25 с.; Мань Шу. Восприятие и понимание имени собственного в межкультурной коммуникации (на материале прагмонимов и эргонимов китайского и русского языков). Дисс. Канд. фил. наук. – Пермь, 2021. — 200 с.; Романова Т.П. Система способов словообразования рекламных собственных имен // Вестник Самарского государственного университета. 2007. № 5/2. – С. 203–214; Алиева Т.Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX– XXI веков: семантико-деривационный аспект: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. – СПб., 2003. – 34 с.; Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. ...д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004. – 360 с.; Танаева З.Т. Аббревиатурные эргонимы г. Махачкалы как многоуровневая система: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Махачкала, 2012. – 22 с.; Галковский А.К вопросу о диапазоне хремотонимии (пер. с польск. Ю. А. Кривошаповой) // Этнолингвистика. Ономастика. Этимология: материалы III Международной научной конференции (7–11 сентября 2015 г.). – Екатеринбург, 2015. – С. 76 – 77.

<sup>4</sup> Saparniyazova M. O‘zbek tili ergonimlarning struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc). ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 75 b.; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati. – Toshkent: “Ishonchli hamkor”, 2021. – 112 b.; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me’oriy asoslari. – Toshkent: “Zebo Print”, 2022. – 192 b.; Siddikov J.N. Ergonimlarning lingvistik tadqiqi (o‘zbek va ingliz tili materiallari misolida): Filol.fan.b.fals.dok. ... Diss. – Andijon, 2024. – 147 b.

badiiy nutq tahlili, antroposentrik nazariya, etnolingvistika, korpus tilshunosligi” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** Surxondaryo ergonimlarining lingvomadaniy xususiyatlarini tekshirish, ularning voqelanishida asos vazifasini o‘tagan lingvomadaniy integratsiyalarni aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:** o‘zbek tilshunosligidagi toponimik tadqiqotlarda ergonimlar tasnifiga doir yondashuvlarni tanqidiy ko‘rib chiqish, ergonimlarni o‘rganishda asos vazifasini o‘tovchi metodologik qarashlarga baho berish, *ergonim* termini va unga yondosh tushunchalarni qiyosiy tavsiflagan holda *ergonim* terminining onomastik maqomini aniqlash;

Surxondaryo ergonimlarining yuzaga kelishida turli tizimli tillar: ingliz, fransuz, arab, lotin, yunon, ispan, fors-tojik tillarining ishtirokini aniqlash, ergonimlar voqelanishida asos vazifasini o‘tovchi madaniyatlar integratsiyasining o‘zbek so‘z yasaliş qonuniyatlariga ta’siri, xususan, onimlar yasalişida ortologik talablar, mazmuniy-shakliy muvofiqlik tamoyillari hamda derivatsion jarayonlarga salbiy va ijobiy ta’sirini o‘rganish;

Surxondaryo viloyatiga mansub ergonimlarda madaniy konseptlarning verballashuviga xizmat qiluvchi ergonimik “kalit so‘z”larni aniqlash;

Surxondaryo ergonimikasidagi mavjud nomlarda G‘arb madaniyatiga xos axborotning mahalliy madaniyat vakillariga ta’sirini tanqidiy ko‘rib chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Surxondaryo viloyati toponimikasiga taalluqli 25676 ta ergonimik birlik tanlab olindi.

**Tadqiqot predmetini** Surxondaryo ergonimlarining lingvomadaniy xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqot metodlari.** Ishda tavsifiy, qiyosiy, leksikografik, etimologik, statistik metodlardan foydalanildi.

**Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

o‘zbek nazariy onomastikasida ergonimlar tasnifi nomukammalligi oydinlashtirilib, ergonim terminining lingvistik maqomi toponimik paradigmadagi urbanonim, oykomodonim, ktematonim, emporonim, reklama nomlari va firmonim terminlari bilan qiyosan ochib berilgan;

25676 ta ergonimik nomlardan inglizcha (3740 ta), ruscha (100), rus-ingliz (169) va o‘zga ajnabiy so‘zlar (28) bilan ifodalangani, fransuz, arab, lotin, yunon, ispan, fors-tojik lingvomadaniyatlari integratsiyasining o‘zbek ergonimlar derivatsiyasidagi o‘rni, onimlar yasalişida ortologik talablar, mazmuniy-shakliy muvofiqlik tamoyillari va yasaliş jarayonlariga salbiy va ijobiy ta’siri yoritilgan;

qo‘llanishi yuqori chastotali *qurilish, saxovat, ta’mir, savdo, ta’minot* singari ergonimik “kalit so‘z”larning o‘zbek lingvomadaniyatiga xos milliy konseptlarni verballashtirishi, aksincha, *star, lyuks, mega, grand, best* o‘zlashma komponentlari o‘zga madaniyat konseptlari uchun “kalit so‘z” vazifasini bajarmasligi aniqlangan;

ergonim-replikalar, ergonim-grafiksatlar, ergonim-implikaturalarning Surxondaryo lingvomadaniy fonidagi ishtiroki va ulardagi G‘arb madaniyatiga xos axborotning mahalliy madaniy makonga ta’siri dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:** ergonimlar ichki va tashqi ifoda shaklida lingvomadaniy xususiyatlar, milliy-mental, madaniy

omillarning yoritilganligi, tasniflanganligi, ular orasida grafiksats-ergonimlar, replika-ergonimlar, implikatura-ergonimlarning aniqlanganligi o'zbek tili toponimiyasi, grammatikasi va ortologiyasini hududiy yoki umumiy etnomadaniy planda o'rganuvchilar uchun muhim manba bo'la olishi asoslangan. Onimlar derivatsiyasida lisoniy va nolisoniy omillarning hisobga olinishi yangi toponimlarning shakllanishiga doir nazariyalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Surxondaryo ergonimlari misolida asoslangan tadqiqot natijalari sohaga doir muhim ilmiy-nazariy ma'lumot berishi, etnolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, antroposentrik tilshunoslik kabi sohalar bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratilishiga xizmat qilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Surxondaryo viloyat Statistika bo'limidan olingan materiallar viloyat ergonimikasi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sharoiti, mental-e'tiqodiy tabiatidan kelib chiqib izohlanganligi, nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, metodik jihatdan mukammalligi, qo'yilgan muammoning aniq va yetarlicha asoslanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, jahon tilshunosligining yangi yo'nalishlari va tahliliy usullari asosida tadqiq qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu dissertatsiya toponimlar, jumladan, ergonimlarning lisoniy, lingvomadaniy va lug'at xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan barcha turdagi tadqiqotlar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Ishda keltirilgan faktik materiallardan o'zbek tili grammatikasini mukammallashtirishda, toponimik (xususan, ergonimik), etimologik, dialektologik, terminologik lug'atlar tuzishda, oliy o'quv yurtlarida maxsus kurs sifatida o'qitishda, zamonaviy toponimiyadan qo'llanmalar, darsliklar yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Surxondaryo ergonimlari lingvistik xususiyatlarining tasnifi, mazkur joy nomlarini lingvomadaniy kesimda o'rganishga doir xulosalardan:

Surxondaryo ergonimlarining yuzaga kelishida turli tizimli tillar: ingliz, fransuz, arab, lotin, yunon, ispan, fors-tojik tillarining ishtiroki va ergonimlar voqelanishida asos vazifasini o'tovchi madaniyatlar integratsiyasining o'zbek so'z yasash qonuniyatlariga ta'siri, xususan, onimlar yasashida ortologik talablar, mazmuniy-shakliy muvofiqlik tamoyillari hamda derivatsion jarayonlarga salbiy va ijobiy ta'siriga doir ma'lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2020-2023-yilda bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 1-fevraldagi № 04/1-404-son ma'lumotnomasi). Natijada onimlar yasashida ortologik talablar, mazmuniy-shakliy muvofiqlik tamoyillari hamda derivatsion jarayonlarga salbiy va ijobiy ta'sirini yorituvchi ma'lumotlar, shuningdek, tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqib, holatga doir metodik tavsiyalarning mukammallashuviga erishilgan;

ergonim-replika, ergonim-grafiksatslar, ergonim-implikaturalarning Surxondaryo ergonimikasidagi ishtiroki va ulardagi G'arb madaniyatiga xos

axborotning mahalliy madaniyat vakillariga ta'siri kabi masalalarni tahlil qilishga doir ma'lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2019-2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli "O'zbek tilida neyning: me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 5-fevraldagi № 04/1-450-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tili neyning nazariyasida ergonimlarni tasniflash, nomlarning o'zga madaniyatlar bilan integratsiyasini izohlashga bag'ishlangan nazariy ma'lumotlarning mukammallashuviga erishilgan.

Surxondaryo viloyati ergonimlari yasashida turli tizimli tillar ishtirokining mazmuniy-shakliy muvofiqlikka salbiy-ijobiy ta'siri haqidagi ilmiy xulosalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Hamma uchun" ko'rsatuvida foydalanildi ("O'zbekiston tarixi" teleradiokompaniyasining 2025-yil 6-fevraldagi 01-33/54 son ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuviga, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan jami 16 ta ilmiy maqola va tezislari: O'zbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta, xorijiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 138 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**"Til onomastik sathida ergonimlar"** deb nomlangan birinchi bobida ergonimlar tadqiqi va talqiniga doir muammolar, ergonimlarning o'zbek onomastik sathidagi o'rni, ularning funksional-semantik tasnifi yoritilgan.

Sho'ro davrida xususiy korxonalar mavjud bo'lmagan: *Gastronom*, *Univermag* kabi sodda nomli muassasalar davlat tasarrufida bo'lgani uchun ergonimlarni o'rganishga e'tibor berilmagan. XX asr 90-yillarida shahar tilining birliklariga qiziqish ortdi. Shahar tili – adabiy va jonli so'zlashuv tillari, shahar onomastik ko'lamining uyg'unlashuvi<sup>5</sup>. U – geterogen tarkibli, ijtimoiy tarmoqlangan, turli til guruhi va oilasiga xos lisoniy shakllar to'qnashuvidan iborat tizim. Shahar tili tizimosti tizimlarining aloqa-aralashuvi shu shaharning gomogen

---

<sup>5</sup> Яковлева Е. А. Ономастическое пространство как составная часть «языка города» и его основные единицы (на примере эргонимов г. Уфы // Вестник Башкирского университета. 2006. – № 3. – С. 90 – 93.

lisoniy tizimining shakllanishiga olib keladi<sup>6</sup>. N.V.Podolskaya taklif qilgan<sup>7</sup> ergonim (yun. *eryov* – “ish, mehnat; faoliyat”) tijorat uyushmasi, birlashma, tashkilot, muassasa, korporatsiya, jamiyatning atoqli nomidir. Nemis tilshunosligida ergonim – mahsulot va xizmat, san’at asari, ko’rsatuv, o’yinchoq, savdo nuqtasi nomi; ruslarda urbanonim, firmonim, trofonim, ergourbonim, restoronim, ergoreklamonim, glyuttonik pragmatonim, oykomodonimlar turi<sup>8</sup>; ozarbayjon tilshunosligida ktematonim turi<sup>9</sup>; polyak, chex, slovakiya, venger, rumin, latviya tilshunosligida – *urbanonim*.

Mustaqillik yillari milliy iqtisodiyotning rivoji bilan onomastik tadqiqot ishlariga e’tibor kuchaydi<sup>10</sup>. O‘zbek tilshunosligida onomastik birliklarning bibliografik ko‘rsatkichi<sup>11</sup>, D.Lutfullayevaning “O‘zbek tilida nom yaratishning milliy texnologiyasi” monografiyasi, D.Xudoyberganovanning “Tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati” nashr qilindi; ayrim ishlarda o‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me’yoriy asoslari, obyekt nomlarining lingvomadaniy xususiyatlariga doir xulosalar berildi; tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati, hududiy ko‘rsatkichi yaratildi<sup>12</sup>.

Ergonimlar: 1) atov; 2) axborot; 3) targ‘ibot; 4) estetik; 5) memorial; 6) mulkning taalluqlilik belgisini anglatish; 7) apellyativ; 8) kumulyativ vazifalarni bajarib, ushbu talablarga javob berishi lozim: a) nom nihoyatda o‘zgaruvchan bo‘lmasin; b) ishlab chiqarilgan mahsulot bilan bog‘liq bo‘lsin; d) obyekt joylashuvini ko‘rsatsin; e) estetik, jarangdor bo‘lsin; f) ommaga tushunarli bo‘lsin.

Korxonalar faoliyat sohasi bilan bevosita aloqani aks ettiruvchi nomlar motivlashgan ergonimlardir. Bu: 1) kvazimik motiv – omonimik va paronimik yondashuvlar jarayonida so‘zning ekspressivlik hosil qilish vositasi sifatida o‘zgarishi; 2) psevdomotiv – “soxta” motivlovchi belgini aks ettiruvchi lisoniy birliklar o‘rtasidagi aloqadir<sup>13</sup>. Assotsiativ mavhum (motivlanmagan) ergonimlar esa – obyektlar va ergonimlar o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud bo‘lmagan nomlar<sup>14</sup>: 1) shaxsning holati va sifatleri: *Aslzoda* go‘zallik uyi; 2) o‘simlik va hayvon nomlari: *Zaytun* restorani, *Anorbank*, *Три медведя* kafesi; 3) mifonimlar yoki arxetiplar: *Afrotida* restorani, *Isida* go‘zallik saloni, *Feredun* kafe; 4) tarixiy

<sup>6</sup> Доценко Т. И. Пермская школа социолингвистики: теоретические и методологические // Вестник Пермского университета: российская и зарубежная филология – 2010 – № 2 (8). – С. 144 – 154.

<sup>7</sup> Подольская Н.В. Словарь русской онамастической терминологии. – Москва: Наука, 1988. – 192 с.

<sup>8</sup> Соловьев А.Н. Урбаноним как онамастический термин: постановка проблемы // Ученые записки, 2018. Том 25. – С. 199 – 200.

<sup>9</sup> Əmrahova L. H. Azərbaycan dilinin ktematonimlər sistemi. Diss. ... Elmlər doktoru. – Bakı, 2021 – B-121.

<sup>10</sup> Saparniyazova M. O‘zbek tili ergonimlarning struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc). ... Diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 13.

<sup>11</sup> Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi (bibliografik ko‘rsatkich). – Namangan, 2008. – 168 b.

<sup>12</sup> Saparniyazova M., O‘rozov J. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 132 b.; Xudoyberganova D. Tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug‘ati. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 112 b.; Lutfullayeva D., Saparniyazova M., Davlatova R. O‘zbek tilida nom yaratishning lingvistik-me’yoriy asoslari. – Toshkent: “Zebo Print”, 2022. – 192 b.; Saparniyazova M., Ahmedova N. Hududiy nomlar ko‘rsatkichi (Toshkent shahar Chilonzor va Shayxontohur tumanlari). – Toshkent: Malik-Print CO, 2022. – 310 b.

<sup>13</sup> Бутакова Е.С. Эргонимы иноязычного происхождения в коммуникативном пространстве города: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук / – Томск, 2013. – 25 с.

<sup>14</sup> Reyhan Yusif qızı Həbibli Azərbaycan təbiiqi onomastikasi: Avtoref. diss. ... filologiya elmləri namizədi / – Bakı, 2021. – 56 s.

qahramonlar va taniqli shaxslar: *Amir Temur* fermer xo‘jaligi, *Ibn Sino* dorixonasi, *Nasimiy* dorixonasi; 5) mavhum otlar: *Orzu* restorani; 6) toponimlar: *Surxon* mehmonxonasini ifodalovchi ergonimlar.

“**Surxondaryo ergonimlarining lisoniy tabiati**” nomli ikkinchi bobda ergonimlarning grammatik xususiyatlari, ergonimlarda morfologik derivatsiya, substantivatsiya, ergonimlarning leksik-sintaktik usulda yasalishi, abbreviatsiya, hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati muhokamaga tortilgan.

Ergonimlar turlicha yasalishi mumkin<sup>15</sup>: 1. Affiksli (o‘zbek tilida ergonimlar yasovchi xususiy formantlar yo‘q): *Do‘stlik* kafesi. 2. Sintaktik usulda: *Boychechak*, *Xon Saroy*, *Zam-zam* oshxonasi, *Toqchiyon-Paxta*, *Pub Hause* kafesi va b.). 3. Qisqartma so‘zlar (*TerDU*. Biroq Surxondaryo ergonimikasiga, davlat muassasalaridan farqli, bunday yasalish xos emaD). 4. Sonli komponentlar: (*Apteka A5*, *Kafe 777*, *Besh Og‘ayin – 2019*). 5. Ma‘nosi yoki kelib chiqishi noma‘lum ergonimlar: (*Luk-luk* fermer xo‘jaligi, *Shaxmirshox Gazar* xususiy korxonasi).

Sintaktik usulda ibora, birikma va gap shaklidagi ergonimlar yasaladi. Ikki va undan ortiq so‘zlardan iborat nomlar ko‘proq ma‘lumot va semantik batafsil axborot tashiydi. Iboralar va gaplar shaklidagi ergonimlar (*Mantimisan manti* oshxonasi, *Aylanay* kelin liboslari saloni, *Marry me* (“Menga uylan”) to‘y marosimlari studiyasi, *In God We Trustt* (Biz Allohga ishonamiz), *Trust In God Every Breath* (Har nafasingizda Allohga ishonib) va *Rahmat!* o‘quv markazi, *Termiz – go‘zallik sari* MCHJ, *Biz siz bilan hamkormiz* MCHJ, *Banzay* (yaponcha olqishlash shakli), *Yo nasib* xususiy korxonasi, *Mehnat – rohat* fermer xo‘jaligi) ham bor. Bu tekshirilgan 25676 ta nomga nisbatan 0,093 %ni tashkil etdi (jami 24 ta ergonim - replika). Ergonim-replikalar adresant da‘vatini aks ettiruvchi onimlar bo‘lib, darak, so‘roq, buyruq-istak, ritorik so‘roq mazmunidagi gaplar modelida shakllanadi va shunga mos tarzda predikatni, adresant ekspressiyasi, fikriga munosabatini (modallikni) yorqin aks ettiradi: *Lapota* (qad. rus, slavyancha *Hayot naqadar go‘zal!*), *Belissimo* (ital. *Ajoyib!*), *Scoozi* (ital. *Kechiring*), *Jourbon* (fr. *Salom!*), *Buongiorno* (ital. *Xayrli tong!*) kabi. Surxondaryo xalqi bir qarashda begonani sinovchi, unda o‘z madaniyatiga rag‘bat hissini ko‘rmaguncha ishonch bildirishga shoshilmaydigan fe‘l-atvor sohiblari. Qo‘li ochiqlik, saxovatpeshalik xos bo‘lgan mazkur psixik-mental stereotip bor joyda ergonim-replikalarning bo‘lishi lingvomadaniy makon tabiatiga ham yot holat hisoblanadi. *Oshga marhamat!*, *Biz ochildik!* kabi peshlavhalargina tegishli ergonim egasining adresat tomon bir qadam qo‘ymoqqa tayyor ekanligidan darak beradi, xolos.

Ergonimlar hosil bo‘lishining leksik-semantik usuli so‘zning ko‘chma ma‘nosiga asoslanib, ularning metaforik onimizatsiya, metonimik onimizatsiya, tranonimizatsiya hamda xorij so‘zlari bilan ifodalanish orqali hosil bo‘lishi aniqlandi. Jumladan, 1) metonimik onimizatsiya ergonimlarni yaratishda eng faol usullardan biri hisoblanadi. Jumladan, *Mustang* yoqilg‘i quyish shoxobchasining nomidagi *mustang* – yovvoyi ot. Hayvon obrazi, quvvat o‘lchovi ot kuchi mashhur

---

<sup>15</sup> Курбанова М.Г. Эргонимы современного русского языка: Семантика и прагматика: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2015. – 232 с.

avtomobil markasi *Mustang* uchun timsol bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik ergonim brend nomi sifatida ishlatilgan. Bundan tashqari *Volto* elektrotexnika do'konining nomi ham xuddi shunday semantik metamorfoz yo'lidan o'tgan. Dastavval *Volta* elektr hodisalari aniqlagan italyan fizigining familiyasi, keyinchalik bu antroponim *volt* eponimi (elektr kuchlanish o'lchov birligi)ga aylantirildi. Do'kon nomi esa elektrotexnika bilan assotsiativ ravishda keyingi ma'noni aniq aks ettiradi.

Ba'zi misollarda, garchi metonimiya mavjuddek ko'rinsa-da, ular mashhur savdo yorliqlari, brendlar nomiga qo'yilgan ergonimlar bo'lib, amalda metonimik ko'chimdan xoli bo'ladi: 1) *Jiguli MCHJ*, 2) *AVTECH computers*, 3) *Daewoo XK*, 4) *Artel XK*, 5) *Samsung XK*, 6) *Turkish Brend Food*, 7) *Osman Foods System*, 8) *Shelby*<sup>16</sup>, 9) *Dior*, 10) *Shanel*, 11) *Folsfagen*. Ushbu misollardan 7-, 8-, 9-, 10-, 11-si metonimik ko'chim asosida yuzaga chiqqan ergonimlardir, jumladan, *Osman Foods System* birikmasidagi *Osman* leksemi Usmoniylarni, turklarni anglatib, "turkcha ovqatlar", "turk milliy taomlari", "turk milliy taomlari tizimi", "turkcha ovqatlanish nuqtalari" deb tushuniladi. 8-, 9-, 10-misollarni metonimik nomlar deb hisoblashimizga sabab, *Shelby*, *Dior* va *Shanel* ergonimlari shu brendlar mahsulotlarini tarqatuvchi do'konlar emas: *Shelby* – o'tgan asrning 60-yillarida inqirozga yuz tutib, "Ford" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarishga qaytarilgan avtomobil markasi, *Dior* va *Shanel* esa tan olingan brendlardir. Bu nomdagi do'konlar moda olami va atir-upaga ixtisoslashgan nuqtalar bo'lib, ular har ikki turdagi mahsulotlarga ramziy ishora, "eng sifatli mollar" semantikasiga ega yorliqlardir. Qolgan: *Jiguli MCHJ*, *AVTECH computers*, *Daewoo XK*, *Artel XK*, *Samsung XK* ergonimlarini esa bevosita shu nomda ishlab chiqarilgan mahsulot asosida faoliyat yurituvchi (bu do'kon ham, servis xizmatini ta'minlovchi muassasa bo'lishi ham mumkin) subyektlarning nomi sifatida baholash lozim. Boshqacha aytganda, bu nomlarda ko'chimlar tabiatiga monand alohida ajralib turuvchi majoz, obrazli tasvir belgilari mavjud emas. Bu xuddi non bilan savdo qiluvchi do'konga "Non" deb nom berishga teng holat, bizningcha.

Metaforik asosli toponimlar yangilangan ma'lumotlar turi (korxonalar ixtisosligi, uning jihozlari, interyeri haqidagi ma'lumot) ga ko'ra tasniflanishi mumkin. Ergonimning maqsadini aks ettiruvchi metaforik nomlar eng ko'p sinfni ifodalaydi. Metaforik asosda hosil bo'lgan ergonimlarda ergonimlarning axborot uzatish, hissiy-baholash va so'z o'yinini vujudga keltirish vazifasi faollashadi, nominator maqsadi, fikr yoki qarash implitsit (yashirin) shaklda aks ettiriladi<sup>17</sup>.

Metaforik ergonimlarda ikki asosiy jihat mavjud: 1) **nomga epideyktik yondashuv**. Ergonimlarda maqtov – nominator tomonidan sinchkovlik bilan amalga oshirilgan "nutqiy hiyla", bunda maqtov nominatorning o'ziga qaratiladi: nominator o'ziga bog'liq turli jihatlarni (o'zi yashab turgan joy yoki sayr etgan manzillar, o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulot yoki faoliyat turi, mahorati darajasi, kasbiy aloqadorligi, tashqi ko'rinishi va b.) go'yo ko'z-ko'z qilish maqsadida nom

<sup>16</sup> 1917-yillarda AQSh Michigan shtatida amal qilgan harbiy avtomobillar brendi.

<sup>17</sup> Курбанова М. Г. Скрытое и явное в эргонимах российского города // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. № 12 (30): в 2-х ч. Ч. I. – С. 121-124; Харченко В. К. Функции метафоры. – Воронеж, 1992. – 88 с.

tanlaydi. Odatda, bu toifa nomlar jarangdorligi bilangina yodda qoladi, ulardagi pragmatik ta'sir darajasi u qadar yuqori bo'lmaydi.

2) **istak-maqсадlarning yashirin shakli (ergonim-implikaturalar)**. Bu, dastlab, nominator niyati, orzu-havasini jozibador tarzda yetkazish yoxud uni implikatura – “qog‘ozga o‘rab” anglatish istagi bilan bog‘liq amalga oshadi. Bu usulda implikaturalar ham ko‘chma, ham o‘z ma‘nosida voqelanadi. Natijada sirtidan jarangdor metaforik nomning ichki shaklida nominator ichki olami, fikriy dunyosidan darak beradigan alohida mazmuniy ko‘lam yuzaga chiqadi: *Hand In Hand, Lumiere*; o‘z ma‘noda – *In God We Trust* – Biz Allohga ishonamiz, *Trust In God Every Breath* – Har nafasingizda Allohga ishonang.

Metaforik onimizatsiya ergonimning tashkilot, korxonalar faoliyati bilan vazifaviy o‘xshashligiga asoslanadi: *Sehrli qasr* bog‘chasi, *Ma‘rifat markazi*, *Baxt uyi* inshooti, *Zebra.uz* jalyuzi pardalar do‘koni, *Qalbinur* kelin liboslari saloni, *Mezbon* mebellar uyi, *Delfin* cho‘milish havzasi, *Sim-sim* restorani, *Street burger* kafesi, *Chocolate* kafesi va b. Metonimiyadan farqli, ular aloqadorlik asosida “almashtirish”ga asoslanmagan. Jumladan, *Doctor Avitsenna* va *Avitsenna-Surxon* XKlar nomi tahlilga tortilsa, birinchi holatda shaxs – o‘xshatish obyekti ekani ma‘lum bo‘ladi. Ya‘ni 1) bunda shifokor kasb mahorati, bilimi tib ilmi asoschisi Abu Ali ibn Sino sifatlariga qiyoslanyapti yoki 2) mazkur shaxsning fizika, filologiya, iqtisod fanlari doktori emas – aynan shifokor ekaniga urg‘u berish maqsadi yotibdi. Ikkinchi misol esa tibbiy xizmatga ishorani namoyon etyapti, xolos. Ya‘ni ergonim *Surxon tibbiyoti* yoxud *Surxon tibbiy xizmat* birikmalari sifatida modifikatsiya qilinishi mumkin. Demak, *Doctor Avitsenna* va *Avitsenna-Surxon* ergonimlarining birinchisida metaforik, ikkinchisida esa metonimik ko‘chish motiv vazifasini bajargan.

*JIYDALI MALIKASI* XKsining grafik berilishidan ergonimning Jiydalida yashovchi Malika ismli ayolga atab qo‘yilgani yoki Jiydalidagi biror-bir noma‘lum ayol (bu hatto biror mashhur daraxt, o‘simlik yoxud boshqa ashyo bo‘lishi ham mumkin) va, umuman, jiydalilik ayollarga nisbatan shakllanganini anglash qiyin. Agar ergonimni shu holicha, ya‘ni tashqi shakli faqat bosh harflardan iborat holatini tahlilga tortilsa, unda ikkinchi taxmin rost bo‘lib chiqadi. Aksincha, ergonimning yozilishi *Jiydali Malikasi* shaklida bo‘lsa, unda bu nomning Jiydalida yashovchi konkret shaxsga atab qo‘yilgani ma‘lum bo‘ladi. Binobarin, ergonim tashqi shaklining grafik yechimi uning ichki shakliga ishora beruvchi va uning ma‘nosini oydinlashtirib yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita sanaladi.

*Sunsit Medical Clinic* MChJ nomi inglizcha nomdek tasavvur tug‘diradi. Ammo *Sunsit* (aslida *Sunset* bo‘lishi kerak) ni ingliz tiliga taalluqlilik jihatidan tahlil qilinsa, u 1) quyoshning g‘arbiy ufq ortiga botish vaqti; 2) kunbotardagi osmon rangi; 3) inson hayoti, biznes, firma yoki muayyan davrning yakunlovchi pallasi; 4) (kishi) hayotining so‘nggi pallasi sifatida talqin topadi<sup>18</sup>. Ammo biznes faoliyati uchun bu nom omadsiz, inqiroz va‘da qiluvchi nom sanaladi va hech bir tadbirkor o‘zi boshlayotgan faoliyatni bu kabi nom bilan bog‘lamaydi; *Sunsit*ni

---

<sup>18</sup> Definition of Sunsit. <https://freefactfinder.com/definition/Sunsit.html>.

metaforik nom sifatida qarab chiqish xatodir, uni *Sunnat* va *Sitora* antroponimlari qisqartmasidan hosil qilingan jarangdor, evfonik nom deb olgan ma'qul.

Surxondaryo ergonimikasida metaforik nomlar quyidagi andozalar (modellar)da shakllanadi: 1) yaxlit metaforik nom. Bu guruh guruhosti guruhchalarga ega: A) o'zbekcha metaforik nomlar: *Zilol*, *Sadaf*, *Marvarid*; B) xorijiy metaforik nomlar: *Iceberg*, *Diamond*, *Brilliant*, *Matroskin* (multfilm qahramoni nomidan). Ayrim mahalliy nominatorlarning til qonuniyatlaridan bexabarligi, to'g'rirog'i, savodsizligi *Shohiston*, *Shahriston* singari aslida metaforik, ammo semantik puch ergonimlarning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi. Metaforik usulda hosil bo'lgan mazkur ergonimlardagi – *iston* qo'shimchasi *shoh* (*Shohida*, *Shohsanam*, *Shohruh*, *Shohmansur* bo'lishi ham mumkin), *shahar* leksemalari bilan g'ayriderivatsion holatni vujudga keltirgan.

2) frazeologik birlik shaklidagi ergonimlar. Ushbu guruh ikki asosiy guruhosti guruhlarga bo'linadi: A) o'zbekcha iboralar: *Burgut ko'z*, *Bog'i Bo'ston*, *O'tkir ko'z*; B) xorijiy iboralar: *Belaya krasota*, *Hand in hand* (o'zbek tilidagi "yelkama-yelka", ya'ni "birgalikda" ma'nosiga to'g'ri keladi), *Silver Sew Master* (kumush chok ustasi), *Clean cut* ("toza kesim" – bu ergonim sartaroshxona nomini ifodalagani uchun uni "toza qirqim" sifatida ham talqin qilish mumkin);

3) aniqlanmishi metaforik, aniqlovchisi o'z ma'noda ifodalangan metaforik ifodalar: A) o'zbekcha metaforik ifodalar: *Boysun mehriyosi*, *Qoratepa marvaridi*, *Buloqqishloq gavhari*, *Diyorim alplari*, *Ilg'orliklar shabadasi*; B) xorijiy metaforik ifodalar: *Vitamin D3*, D) aralash tipli metaforik ifodalar: *Somsa sity oshxonasi*, *Surxon savdo olami*, *Starmax Miracle Servis*, *Yangiariq Golden Foods*; 4) aniqlanmishi o'z ma'noda, aniqlovchisi ko'chma ma'noda ifodalangan metaforik ifodalar: A) o'zbekcha metaforik ifodalar: *Oltin jo'ja*, *Oltin voha*, *Obi hayot*, *Yangi turmush*, *Kumush tola*, *Atlas olma*; B) xorijiy metaforik ifodalar: *Golden salve dorixonasi*, *Happy Color*, *Black Star Wear*, *Enjel Lasvegis*; D) aralash tipli metaforik ifodalar: *Doda burger*; 5) aniqlovchi-aniqlanmish qurilmasidagi har ikki komponentning metaforik ma'noda kelishi: A) o'zbekcha metaforik ifodalar: *Oltin globus*, *Yashil dunyo*, *Zangori asr*; B) xorijiy metaforik ifodalar: *Bog'i xayol*; D) aralash tipli metaforik ifodalar: *Bog'i Eram mash'ali agro*, *Guliston nurli omad*, *Muzrabot shaffofi agro*; 6) juft so'z shaklidagi metaforik nomlar: A) o'zbekcha metaforik ifodalar: *Lola-Kamalak*, *Xolchayon-Humo*; B) xorijiy metaforik ifodalar: *Kaknus-Kardio*, *Sadaf-Javohir-Dur* (*Sadaf-Javohir-Dur* ergonimida nominatorning nozik so'z o'yini mavjud, ya'ni o'zbek lingvomadaniyatida mumtoz badiiy san'atlari orqali kirib kelgan *sadaf* ham, *javohir* ham, shuningdek, *dur* ham tishga berilgan tashbeh hisoblanadi. Shunga ko'ra, u qisqargan o'xshatish o'rnida istioraga o'tadi. Biroq nominator istagicha, bu *Javohir* hamda *Durdona* antroponimining qisqartma shakli bo'lishi ham mumkin, *Sadaf* – istisnoli holat. Har ikki holda ham ergonimning tish davolash muassasasiga qo'yilgan ajoyib topilma ekanini e'tirof etish zarur, zotan, N.D.Arutyunovaga ko'ra, so'z o'yini ekspressiya, hissiylikka qurilgan "anomaliya"dir)<sup>19</sup>; D) aralash tipli metaforik ifodalar: *Sho'rchi gold fruits*.

<sup>19</sup> Арутюнова Н. Д. Аномалии и язык (К проблеме языковой «картины мира») // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 1987. – С. 3-20.; Вартанова Л.Р. Экспериментальный характер языковой игры как оппозиция нормы и

Ushbu bobda, shuningdek, oddiy transonimizatsiya (*Madina Farm, Turon* banki, *Ravon* avto ehtiyot qismlari) va ishora (allyuziya: *Kish Mish* bar, *Ochamoyli* fermer xo‘jaligi) transonimizatsiya asosida hosil bo‘lgan ergonimlar tahlil qilindi.

**“Ergonimlarda madaniy semalarning tashqi va ichki shaklda voqelanishi”** deb nomlangan uchinchi bobda o‘z qatlamga mansub ergonimlarda madaniy semalarning voqelanishi, o‘zlashgan qatlamga mansub va o‘zlashma komponentli ergonimlarda madaniy semalarning voqelanishi, Surxondaryo ergonimikasining qariyb 5/1 qismini ajnabiy so‘zlarning tashkil qilishi tadqiqot obyektini lingvomadaniy asoslarda ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Bunda ergonimlarning mahalliy mentalitetga mosligi, nutq madaniyati mezonlariga muvofiq kelishi, o‘zi atab kelayotgan obyektga muvofiqlik darajasi tahlilga tortildi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarning<sup>20</sup> tahliliga ko‘ra, MDH mamlakatlaridagi ergonimik manzarada *lyuks, elit, ekonom, best, vip* singari varvarizmlarning ishtiroki o‘zbek ergonimikasida ham “aks-sado” berib, natijada yashirin qiyosni yuzaga keltiruvchi va raqobatda tengsizlikka da’vo qiluvchi nomlar yuzaga chiqdi: *Pantos Car Lyuks, The Best Oltinsoy, Vip Brend, Surxondaryo Best Seeds* kabilar. Ergonimlarga bu kabi yondashuv mijozni chaqirishdagi “yashirin hiyla” bo‘lib, mazkur ajnabiy so‘zlar sintaktik qurilmada to‘g‘ri valentlik hosil qila olsagina bu ergonimni muvaffaqiyatli chiqqan deb hisoblash mumkin. Ammo aksar holatlarda nominatorlarning lisoniy bilimsizligi mijozni cho‘chitishi, ishonchsizligiga sabab bo‘lishi mumkin *Qoraariq Gold Best Servis, Best Mega Termiz* singari.

Surxondaryo ergonimikasining jami 8 (“Qishloq xo‘jaligi”, “Sanoat”, “Qurilish”, “Savdo va xizmat ko‘rsatish”, “Tashish va saqlash”, “Ovqatlanish”, “Axborot-aloqa”, “Sog‘liqni saqlash”) mavzuviy guruhleri (MG) orasida semantik muvofiqlikning yuqori hissasi “Sog‘liqni saqlash – tibbiyot va salomatlik” guruhiga to‘g‘ri keldi: *Viloyat fiziatriya va pulmonologiya markazi, Viloyat endokrinologiya dispanseri, Tabletki, 03, Vitamin dorixonalari, Surxondaryo viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi*. Mazkur bobda 8 MGdan 3 tasi ko‘rib chiqildi.

Surxondaryo ergonimikasiga taalluqli: *Ovchi orzusi, Xolmurodovlar sulolasi, Poklanish sari tiklanish, Kamoliddin va ukalari, Ulg‘oy momo o‘g‘illari, Boysun kosiblari, Lazzatli do‘lma, Tallimaron chorrahasi, To‘rayevichlar, Ziyayevlar, Jiydali malikasi, Termiz sohili, Zarkamar saxovati, Qo‘shtegirmon asl taomlari, Qorasuv oqshomi, Kampirtepa saxovati, Archabuloq olmasi, Qoratepa marvaridi, Taroqli chakana savdo guzari, Qo‘shchinor uzumi, Tillo javuz mayizi, Eski qishloq mevazori, Vaxshivorlik bog‘bon, Kosabuloq uzumzori, Lahza, Surxon, Begoyim, Choynak, Istiqlol, Osiyo, Turon* singari ergonimlar Surxondaryo ergonimikasining betakror koloritini bera oladi. Madaniy semalarning yorqin ifodasini sanalgan 8 ta guruh orasidagi “Qishloq xo‘jaligi” MGda kuzatish mumkin.

**“Qishloq xo‘jaligi” MG.** Qamroviga ko‘ra eng yirigi bo‘lgan (9004 ta ergonimik birlik) mazkur ergonimik manzaradagi madaniy makon belgilari, shu

---

аномалии // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-1. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=17869>

<sup>20</sup> Курбанова М. Г. Скрытое и явное в эргонимах российского города // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2013. № 12 (30): в 2-х ч. Ч. I. – С. 121-124.

kabi qipchoq, qarluq shevalariga oid unsurlar, mahalliy toponimlar, antroponimlar, etnonimlar, etnografizmlar, laqab va taxalluslar evaziga yana-da joziba kasb etadi: *Oq to'nlilar bo'stoni, Tolli oltin olmasi*. Bunda *oq to'nlilar* – etnonim, *tolli* – qipchoq shevasida “shirin, mazali” ma'nosida.

Milliy jozibador ergonimlar orasida juda kam sonli bo'lsa-da, izohlovchi o'rnida kelgan laqab, maqom, rutba, kasb-kor kabi apellyativlarning alohida o'ri bor. M., 1) laqab-apellyativli: *Muhammadi chaqqon, Shaxan yo'lbars, Hayit dev*; 2) diniy maqom, rutbani anglatuvchi apellyat bilan: *Hapal hoji, Zulayho poshsho*; 3) kasb-hunar, faoliyatga doir apellyat bilan: *Asalchi Jalil, Salmon mergan, Bog'bon Muhammad, Chavandoz Shohabbos, Sana polvon, Abdusattor mirishkor, Binosoz Usta Olim, Uzumchi Po'lat, Ergash muallim, Denov limonchi Mengboy, Mavlonberdi chorvador, Allaberdi baliqchi, Elmurod xudoydod*; 4) etnonim apellyativli: *Nurali qo'ng'iroq, Hakim elbegi, Shokir darbandi*; 5) toponimik apellyativ bilan: *Chinorlik Mamathakim, Shakarqamishlik Mahmud, Sayraklik Chori, Kofrunlik Bo'ri polvon, Oltinsoylik Og'abek, Xidirsholik Boysari, Rustam Boysuniy*; 6) ijtimoiy maqomni anglatuvchi apellyativ bilan: *Rajab oqsoqol, Komil oqsoqol*.

**“Savdo va xizmat ko'rsatish” MG.** “Qishloq xo'jaligi” MGdan keyingi yirik bu guruh (8172 ta ergonim) o'zga MGlardan mavzuviy rang-barangligi, konseptual turli qirraligi, apellyativlarining turli turdosh va atoqli nomlar asosida shakllanganligi, yakdil qurilish andozasiga ega emasligi, ergonimik rang-barang indikatorlarga egaligi, o'zlashgan qatlam unsurlarining faol qo'llanishi, milliy olam manzarasidan farqli, olam manzarasining gibrud xususiyatiga ko'ra keskin farq qilishi aniqlandi. Bu guruh nomlari ma'muriy bo'linish belgilarini yorqin aks ettiradi. Bu 1) shahar yoki shaharlashgan (ko'pincha viloyat markazi, Termizda) hudud ergonimlari va 2) tuman, qishloq hududiga taalluqli ergonimlar. Har ikki tip hudud ergonimlarida milliy bo'yoqdor nomlar va, aksincha, nom yasash qonuniyatiga zid keluvchi (derivatsion qonuniyatlarga amal qilmaslik (*BoboshMuniD*), so'zlardan pala-partish foydalanish (*O'smirlik yoshlari XXI asr*), xato bilan berish) holatlar kuzatiladi. Bu o'zlashmali ergonimlarga ham teng aloqador. M., *Diet* kafesining nomi aslida yunon tilida *dieta* yoziladi. Shu kabi holat *Milove* (aslida *My love*) va *Xanna* (*Hanna* mashhur kinofilm qahramonining ismi) ergonimlarida ham ko'zga tashlanadi. *Nig-zar, Sorbus* nomlari ham tushunarsiz. Qolgan: **“Tashish va saqlash”**, **“Ovqatlanish”**, **“Sanoat”**, **“Qurilish”**, **“Axborot-aloqa”** MGlari ergonimlarida ham mavzu ko'lamidan chetlashish, sohaviy ixtisoslashmaganlik belgilari yaqqol namoyon bo'ldi.

Umuman, ko'rib chiqilgan mavzuviy guruhlariga mansub ayrim o'zbekcha ergonimlarda nutq madaniyatining *to'g'rilik, soflik, mantiqiylik, aniqlik* talablari qo'pol buzilganini ko'rsatdi: *Quvonchli hamkor, Ramzi Chori taomlar, Bokira kayfiyat, Habibullo-Oltin baliq, Muhtasham Elit, Sabo ledy, Erkatoy kids, Shabada-Shamoli 777, O'rol Olovuddin shamchirog'i, Mavlono Balxi, Rashidbobo Yaxnabinosi, Billur go'shtlar makoni* kabilar.

Surxondaryo ergonimikasida o'zbekcha bo'lishi kerak bo'lgan nomlar o'rnida *Al-Fatix, Al-qasr, MS. Budur, Hafizul Mubin, Zolotoy Taminot, Hafizul Mustafo, Sayidul Ali Akbar, Al-Aziz Xolis, Lafiz 571, Muhammaddovud 571, Sumayya 777,*

*Al-Shamshir, Abu Hurayra, Al-Lazal, Baytul Madad Shifo, Iqro, Bagdat Farm* kabi nomlar ko‘payib, hudud toponimik manzarasining ekzotik unsurlar evaziga o‘z milliy qiyofasi va bo‘yoqdorligini yo‘qotishiga sabab bo‘lmoqda. Ular o‘zbekcha so‘zlarning arabiy talaffuz va arab grammatikasiga moslab berilgan variantlari bo‘lib, nominatorlarning nom tanlashga nisbatan qo‘pol yondashuvi mahsulidir. M., *Hafizul Mubin* = bu *Hafiza* + *Mubina* dan iborat so‘z tizmasi yoxud *Hafizova Mubina* izohlovchi-izohlanmish konstruksiyasi bo‘lishi mumkin; *Al-qasr* = Qasr<sup>21</sup>; *Al-Shamshir* = qilich, tig‘<sup>22</sup>; *Sayidul Ali Akbar* = Saidov Akbar Ali o‘g‘li; *Baytul-Madad-Shifo* = qisqacha “shifoxona”; *Zolotoy Taminot* = (oltin) ta‘minot va hk. Istalsa, bu kabi aksar nomlarni o‘zbekchalashtirish imkoni bor.

25 mingdan ortiq nom 8 ta MGga ajratilgan: axborot-aloqa xizmat ko‘rsatish nuqtalari nomlarining 33 foizi, ovqatlanish nuqtalari nomlarining 32 %i, qishloq xo‘jaligi nomlarining 4,83 %i, qurilish muassasalari nomlarining 38,76 %i, savdo nuqtalari nomlarining 26,95 %i, sog‘likni saqlash muassasalari nomlarining 26,6 %i, tashish va saqlash xizmat ko‘rsatish nuqtalari nomlarining 18,55 %i xorijiy so‘zlar bilan ifodalanganligi aniqlandi. 25 mingdan ortiq nomlarning 4037 tasi xorijiy so‘zlar bilan ifodalanganligi va shulardan, ya‘ni 4037 ta ergonimlarning 92,6 % ingliz tiliga oid, 2,5 % rus tiliga oid, 4,2 % rus-ingliz va 0,7 % boshqa xorijiy tillarga oid so‘zlar bilan ifodalanganligi aniqlandi.

**I. O‘z va o‘zlashgan qatlamga tegishligiga ko‘ra:** 1) bitta tilga oid o‘zlashmali ergonimlar (*Banzay, Mauzer, Integral, Fath, Komlayf, Rotor, Al-Shamshir*); 2) bir tizimli bir necha tillarga oid ergonimlar: a) antropokomponentli o‘zlashmali ergonimlar (*Al-Ibrohim, Rahmon-Stoma-Servis, Parvina Queen, Sakina Mubina Kafe, Asadbek Imkon MakD*); b) topokomponentli o‘zlashmali ergonimlar (*Minor Everest Savdo, Minor-Davr-Servis, Palma Asia Jar, Denov Kebab, Hisor Serena, Sho‘rchi Good Mood* va b.); d) etnonim komponentli o‘zlashmali ergonimlar (*Barlos business, Qurbonoyi darbandi*); d) agionim komponentli o‘zlashma ergonimlar; e) fitokomponentli o‘zlashmali ergonimlar (*Zeitun meal*); 3) turli tizimli tillarga oid ergonimlar (*DengizInfoTech, Surxon zamin print, Samira star Termiz*) ga ajralishi aniqlandi.

**II. Tuzilishiga ko‘ra o‘zlashmali ergonimlar** asosiy uch guruhga: 1) o‘zlashma unurning mustaqil shakli qatnashgan ergonimlar; a) alohida leksema shaklidagi ergonimlar (*Xafizul*), b) kompozitsiya usulida shakllantirilgan ergonimlar (*Surhon-Jar-Servis-J, Darai-Sari-Navo*); d) sifatlovchi-sifatlanmish andozali ergonimlar (*Zolotaya vilka, Leader Of The South, Beauty day, Arabic trewel, Muslima Family Food*), e) iboraviy ergonimlar: *Dark side alko* (“ichkilikning qorong‘i tomoni”), *Honest Way* (“to‘g‘ri yo‘l”), *The Way To The Rise* (“cho‘qqi sari yo‘l”); 2) abbreviatura-ergonimlar: a) faqat abbreviaturadan iborat ergonimlar (*Hikvisionproject, Mux-Tor Set, NFR-IKEA*), b) aralash tipli ergonim-abbreviaturalar (*IT Services Zealsoft, NEWTECH-Boysun, TENX Coders* (*TENX – Tenax Therapeutics, Ind*), *Cipher IT Development, Turon-Invest-Telecom, OBSHIR Network*) hamda 3) gibrid ergonimlar (*Oksbrij*)ga ajratildi.

---

<sup>21</sup> ЎТИЛ, 258-б.

<sup>22</sup> ЎТИЛ, 543-б.

Ergonimlar odatda ikki komponentdan iborat bo‘ladi. Muayyan qism odatda mahalliy xalq tilida yoziladi, uning ikkinchi qismi esa ko‘pincha ingliz, ba‘zan rus, fransuz tillarida bo‘ladi. Ikkala qism birgalikda ergonimning lingvistik kodini aniqlaydi. M., arabcha+inglizcha: *Xadija art collection; Yasin travel*. Shuningdek, grafiksats-ergonimlar sifatida ajratiluvchi *Alko gold* ergonimini *الكحل*, ya‘ni arabcha *al-kohl* “mast qiluvchi”, undan lotin tiliga o‘tib (XIII asr), *alcohol* shaklini qabul qilgan. Termiz ergonimikasidagi bu bilan bog‘liq *Alko gold* (marketi) nomi uchraydi: qurilmaning birinchi qismi arabcha *al-ko-gol*ning dastlabki ikkita elementiga ishora, garchi qisqartma shaklida ifodalangan bu so‘z to‘liq ma‘nosi va shakli bilan namoyon bo‘lmasa-da, uning yonida kelgan inglizcha *gold* (“oltin”) so‘zi go‘yo *alko* bilan so‘z o‘yinini hosil qilgan. Natijada mahalliy mentalitetga ters keluvchi, disfemik xarakterli *alkogol* so‘zini milliy madaniyat va e‘tiqod egalarining salbiy munosabatidan “pardalovchi” *alko+gold = alkogol(d)* tarzli fonetik evfoniya yuzaga kelgan. Bunday so‘z o‘yini *Yasmin-Simin* ergonimida ham kuzatilib, jumladan, *Simin* – “kumush”, “kumushday tovlanuvchi” ma‘nosida kelgan forscha so‘z bilan arabcha antroponim<sup>23</sup> shakliy-fonetik uyg‘unlik kasb etgan. Fanda bu hodisa *gendiadis* (yun. *bitta tushunchani ikkinchisi orqali ifodalash*) deb nomlanadi. O‘zbek tilshunosligida bu ko‘proq: *choy-poy, non-pon, pista-mista, qalam-palam* kabi misollarga to‘g‘ri keladi. Ko‘p hollarda bu termin shu kabi misollar bilan izohlanmaydi: *gendiadisga Yasmin-Simin* yoki *Astros-Motors, Salmoh-Sarboh, Boynusun (Boynusun – Boysun + Nusrat + Sunnat) Star, Aysi – Aysi, Sho‘rchi Good Mood* singari ikki komponenti ham mazmun anglatuvchi so‘zlardan tashkil topgan juft so‘zlar ham kiradi. Surxondaryo ergonimlarida *gendiadis* asosiy ikki shaklda: 1) alohida leksemalar yoxud ularning fonetik ohangdoshi yordamida shakllangan juft so‘zlardan iborat ergonimlar (*Yasmin-Simin, Astros-MotorD*); 2) bitta leksema tarkibida kelib, uning umumiy fonetik to‘plamidagi tovushlar bilan uyg‘unlik hosil qiluvchi, ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlardan iborat ergonimlar (*Boynusun*) voqelanar ekan.

I.A.Mammed istalgan tilga o‘zga til unsurlari xaotik (betartib) ravishda emas, tartibli ravishda, o‘zlashtirishning muayyan qonuniyatlari, usullari asosida o‘rnashishini qayd etarkan<sup>24</sup>, ma‘nosi mantiqiy qonuniyatlarga zid kelmaydigan o‘zlashmalarni nazarda tutadi. Biroq bu fikrni Termiz shahridagi quyidagi ergonimlarga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi: *Street Gold, Sar Al Legro, Palma Asia Jar, Glamour Invest Finans, Shelby, Mistery Kafe, Saidvali Gold, Ideal Osiyo, Xafizul, Zeitun Meal, Wabi Sabi Chicken, Rich Beko, Hubba Farrux, Meta-Friends, Termiz Platinum, Kafe Green, Yulduz Al-Kabir, Al-Kabir-Zahro, Muza-Burger* kabi. Ushbu o‘zlashmali ergonimlarda umumiy semantik ko‘lamning mohiyati “bo‘shliq”qa (SK=Ø) teng bo‘lib, mazkur “so‘zli qurilmalar” nomlash nazariyasining qonuniyatlariga mutlaqo muvofiq emas, asliyat tilida ham ma‘no ifodalamaydi. Jumladan, *Yulduz Al-Kabir* ergonimining turkiycha *yulduz* (ozar.

<sup>23</sup> “Yasmina” so‘zi forscha “Yosamin” (Yosemin) so‘zining arabchaga o‘tib, keyin birlik muannas (jenskiy rod) shakliga keltirilgan ko‘rinishi bo‘lib, “yasmin guli” degan ma‘noni anglatadi.

<sup>24</sup> Маммед И.А. Виды заимствований и ассимиляция заимствованных слов (на основе материалов современного английского и азербайджанского языков)// Вестник Чувашского университета. 2018. № 2. – С. 253-260.

*ulduz*, o‘zb. *yulduz*, tat. *yoldıız*, qorach.-balq. *djulduz*, qoz. *jıldız*<sup>25</sup>) va arabcha *kabir* so‘zi orqali hosil bo‘lishida ortologik xatolik mavjud. Negaki turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilida ham hajmning kattaligini anglatuvchi “*yirik*” so‘zi mavjud<sup>26</sup>ligiga qaramay, “*Katta yulduz*” nominativi o‘zbek tilining sofligiga putur yetkazuvchi tarzda shakllantirilgan. Bu *Zamin Maks Star* ergonimiga nisbatan ham tegishli: *maks* – “*yirik*”. Shu kabi, *Sar AlLEGRO* ergonimi so‘zma-so‘z tahlil qilinsa, o‘z holaticha emas, ispancha *Alegria* – “shodlik” va qadimgi fors tilidagi “*dumaloq, bosh, qiyofa*” ma’nosini beruvchi *sar* so‘zlari bilan hosil qilingani ayon bo‘ladi. Ushbu so‘z Toshkent shahrida joylashgan *Allegrosar* musiqiy asboblar do‘koni nomi bilan ekvivalent bo‘lishi ham mumkin. Biroq bu yerda termizlik nominatorlarning so‘z o‘yiniga murojaati ham yo‘q emas – aslida *Alegria* ispancha so‘z, biroq unga sharqona tus berish maqsadida uning *AlLEGRO* grafik qiyofasini qo‘llaganlar. Zotan, arab tilida *AlLEGRO* bilan bog‘liq ma’no yo‘q, demak, bu tilda **عجل** so‘zi ham mavjud emas. Fikrimizcha, *Sar AlLEGRO* – “*Alegro* antroponimi bilan atalgan saroy” yoxud “*shod qiyofa*” ma’nosini anglatishi lozim bo‘lgan. Biroq har ikki holda ham mazkur nominativning semantik ko‘lami SK=Ø ga teng.

Ergonimlar orasida nominatorning ichki istagini original tarzda ifoda etuvchi nomlar bor: *In God We Trust* – Biz Allohga ishonamiz, *Reach Perfection* (mukammallikka erishish), *Future Of The Family*, *Always Ready*, *Halal Money*, *Trust In God Every Breath* – Har nafasingizda Allohga ishoning va b. Ammo **bu kabi mantiqan to‘g‘ri tuzilgan, mental talablarga muvofiq keluvchi, qadriyatli yuki yuqori bo‘lgan o‘zlashma ergonimlar tahlilga tortilgan jami 25676 ta birlikka nisbatan deyarli hech qanchani tashkil qiladi.** Shunga ko‘ra, nutq madaniyatiga zid keluvchi nomlarni bartaraf etishga doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2016-yil 28-oktyabrda PQ-2646-son qaroridan kelib chiqib tavsiyalar berildi.

8 ta MG tarkibidagi ergonimlarda o‘zbek va g‘arb madaniyatiga taalluqli konseptlarning qo‘llanish chastotasi o‘rganildi. 25676 ta ergonimik unsurda o‘zbek lingvomadaniyatida mavjud: *fayz* (1,87 %), *kelajak* (0,45 %), *nur* (1,24 %), *omad* (1,45%), *davr* (0,87%), *oltin* (0,77%) konseptlarining yuqori faollikka egaligi aniqlandi. Bular orasida *baraka* (2,7%) konsepti eng faol hamda barcha semantik guruh ergonimlari uchun umumiy bo‘lgan va yuqori, o‘rtacha yuqori faollikka egaligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich Surxondaryo ergonimikasida o‘zbek lingvomadaniyatiga xos nom qo‘yishning nozik qonuniyatlari shakllanganini isbotlaydi. Ya’ni islom e’tiqodiga ko‘ra mol-u mulkka Allohdan oshkora davlat, boylik so‘rash orqali emas, berilganlarning barakasiga ega bo‘lish orqali erishiladi. O‘zbek lingvomadaniyatida mulkka ega bo‘lishning oshkora ifodasini berish – musulmonchilikka zid holat bo‘lib, uni, odatda ko‘rsatib o‘tilgan: *davr*, *nur*, *omad*,

<sup>25</sup> [https://dic.academic.ru/dic.nsf/personal\\_names/1110](https://dic.academic.ru/dic.nsf/personal_names/1110).

<sup>26</sup> Ш.Рахматуллаевнинг “Ўзбек тилининг этимологик луғати” га қаранг. 1-жилд, *йирик* сўзи. Ири+к=ирик>йирик. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-том. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б. Яна: Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Том 1-4. – М. 1974-1989. – 188 с.

*imkon, humo, iftixor, umid, yuksalish, nurafshon, kelajak* leksemalarining ichki shaklida mavjud potensial semalar evaziga anglatish holati ustun ekani aniqlandi.

MGlar orasida “Qishloq xo‘jaligi” MG birliklarigina keskin sanoatlashish jarayoniga yuz tutmagan, ODAM + TABIIY MAKON + MADANIY MAKON modeliga to‘liq javob beruvchi ergonimlar sirasiga kirarkan. Demak, madaniy konseptlar ko‘proq ana shu modelga qurilgan faoliyat sohasining lisoniy manzarasida faol, uning qurilishida asos vazifasini o‘taydi.

O‘zlashmali nomlarda g‘arb madaniyatiga xos konseptlarning yuqori chastotasi kuzatilmadi. Faolligi kuzatilgan: *mega* va *grand* sifat-leksemalarini esa lingvomadaniy konsept sifatida hisobga olinmadi. Qolgan *trans, agro, farm, stroy, med, food* aniqlagichlari esa qayd etilgan 8 ta MG ergonimlarining “kalit so‘zlari” - ixtisoslik indikatori bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

25676 ta ergonim orasida chet madaniyatga xos konseptlarning ochiq verballashuvi kuzatilmaydigan nomlar bor. *Dark side alko* (so‘zma-so‘z – “qorong‘i tomon alko” yoxud “alkogol dunyosining qorong‘i tomoni”, *Fir‘avn zali* singari qurilmalar, *Dubay* (restoran nomi), *Diplomat* (restoran nomi) da “boylik”, “hasham”, “ishrat” konseptlari yashirin voqelangan. *Tashvishsiz hayot, kayf-safo, ishrat* tushunchalarining *Fir‘avn zali* ergonimida berilishi yoxud shu tushunchalarning *alkogol* leksemasi orqali anglatilishida o‘zbek qadriyatiy qarashlariga zid keluvchi holat mavjud: *Dark side alko* (“qorong‘i tomon alko” yoxud “alkogol dunyosining qorong‘i tomoni”) ergonimi bir qarashda “ichkilikka berilib, jinoyat dunyosiga kirib qolish ehtimoli” haqidagi mazmuni bilan kishini hushyor torttiradi. Boshqacha aytganda, buni o‘ziga xos implikatura – ogohlantirish deb ham qabul qilish mumkin. Bu xuddi tamaki mahsulotlari qadog‘idagi chekmaslikka undashga o‘xshagan nutqiy hiyladir.

*Fir‘avn zali* (dam olish kafesi) da ifoda topgan *hasham, boylik* tushunchalari *ochko‘zlik, hadsizlik* konseptlari bilan oson uyg‘unlashadi. Chunki *Fir‘avn* – shu illatlarning Qur‘oni Karimda la‘natlangan ramzi. Bu nom nafaqat mahalliy, balki islomiy madaniyat vakillariga qaratilgan bepisandlik belgisi, ularning e‘tiqodiy tushunchalarini poymol qiluvchi “yashirin haqorat” – ergonim – implikaturalardir.

O‘z va o‘zlashma qatlam unsurlaridan tarkib topgan Surxondaryo ergonimikasida *go‘zallik, hayo, bokiralik, poklik* singari umummadaniy konseptlarning verballashuvida e‘tiqodiy qarashlardan og‘ishish, milliy qadriyatlarga hurmatsizlikni ifodalovchi nomlar ham mavjud: *Boginya, Virgin* singari go‘zallik salonlari. Ulardan birinchisi “ma‘buda” deya tarjima qilinadi, biroq bu islomiy ahkomning bosh talabi – Allohning yagonaligiga iymon keltirish shartiga nisbatan kufrona yondashuv. Ikkinchi nomning “bokira” deb tarjima qilinishi esa nafaqat joy nomiga nisbatan bee‘tiborlik, balki o‘zbekchilikda pardalanishi lozim bo‘lgan xislatning oshkor berilishiga xos hayosizlikning ifodasi.

Ergonim – implikaturalar orasida *In God We Trustt* – Biz Allohga ishonamiz, *Trust In God Every Breath* – Har nafasizgizda Allohga ishonning mazmunini ifodalovchi nomlar ham mavjud bo‘lib, ularning ingliz tilida berilishida chuqur islomiy madaniyat mavjud. Nominatoridagi iymonli inson ekanligini pardalashga bo‘lgan harakatni tasavvufiy jihatdan ijobiy baholash mumkin.

Surxondaryo viloyatiga xos 25676 ta ergonimdan 13357 tasi antropomorf kodli, 5736 tasi toponimik, 568 tasi abstrakt otlar, ya'ni ma'naviy kodli, 138 tasi zoomorf, 90 tasi fitomorf, 69 tasi litosonim, ya'ni predmetli kodli, 14 tasi astronim – predmetli kodni voqelantirgan nomlar bo'lsa, qolgan 5704 tasi yuqoridagi guruhlariga mansub bo'lmagan birliklar bilan ifodalangan. Anglashiladiki, hudud toponimikasida yakka tadbirkorlik rivojlanishi bilan o'rta va yuqori mulkdorlar sinfining shakllanishi fuqarolar orasida o'z "men"ini tasdiqlash istagini kuchaytiradi. Natijada mulkdorlar tomonidan tanlanadigan nomlarda ularning a) o'zlari, b) ajdodlari, d) farzandlariga aloqador antroponimik unsurlar (ism-shariflar, laqablar, taxalluslar)ni bo'rttirib ko'rsatish holati kuchayadi.

Ergonimlarni grafiksats usulida berishning pragmatik afzalliklari ko'pligi ergonimik yozuvning turli ranglarda berilishi, biror harfning tasvir, shakl-shamoyilga asoslanib berilishi PARIS singarilarda kuzatiladi. Surxondaryo ergonimikasi tillarang yozuvli ergonimik grafiksatlarga boy (**ЧУДО ДЕТКИ, 14-DMTT** kabi) sanaladi, bunday rang, asosan, zargarlik do'konlari va markazlari, ayollar uchun do'konlar (butiklar), go'zallik salonlari, kelin liboslari salonlari uchun xos rangdir. Biroq hozircha grafiksatlar Surxondaryo ergonimikasi uchun dolzarb jihatga aylanib ulgurganicha yo'q, bu borada Surxondaryoda ergonimik grafiklarning mumtoz shaklida berilishini ham yana bir lingvomadaniy jihat sifatida baholasa bo'ladi.

Surxondaryo ergonimlarida bo'rtib turuvchi ksenonimik belgilar juda kam uchraydi. Bu, odatda, til sohibining *Bandixon Javohiri 555, Shabada-Shamoli 777, Davr 0707, 5×5, 03, 77* dorixonalari, *33 Pingvina kafesi, 571 dorixonasi, Semurg*<sup>27</sup> 404 singari o'zga madaniyatga munosabatini anglatuvchi nomlardagina kuzatiladi. Ya'ni ksenonimiya raqamlar orqali ifoda topib, mifologik ahamiyatga ega bo'lgan **3, 4, 5, 7** bilan bog'liq mistik qarashlar bilan assotsiatsiyalanadi.

## XULOSA

1. Bugunga qadar onomastik tadqiqotlarda ergonimlarning struktur-semantik, derivatsion, pragmatik va lingvopoetik xususiyatlari yoritilgan, ammo antropotsentrizm rivoji bilan ergonimlarni lingvokognitiv, lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish jarayoni jadallashdi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida ergonim raqobatbardoshligini ta'minlash, yillar davomida ergonimiyada nomlanish tartibida dunyoqarashning, jamiyatda baholash mezonlari, nomlanishning xarakterini aniqlovchi til xususiyatlarining o'zgargani evaziga kuzatiladi.

2. Fanda ergonim: 1) ma'lum maqsadda tashkil etilgan insonlar birlashmasidan iborat tashkilot, kompaniya, o'quv dargohlari; 2) aniq yo'nalish va harakat yo'lida birlashgan insonlar birlashmasi; 3) jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar yoki tashkilot (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy); 4) odamlar birlashadigan maxsus ittifoq nomi, tashkilot, uyushma, boshqaruv, korporatsiya, korxonalar, jamiyat, maydon; 5) odamlarning ishbilarmon jamiyati; 6) biznes uyushmasi nomlarini ifodalovchi atoqli ot deb hisoblanadi.

---

<sup>27</sup> Eron mifologiyasi qahramoni, "Avesto"da "senemurg" shaklida.

3. Ergonimikaning muhim sharti undagi motivatsiyasidir. Nominatsiya jarayonida korxonaning bir qator xususiyatlari orasidan biri tanlanadi va uning asosida adresatga pragmatik ta'sirni nazarda tutuvchi motiv shakllantiriladi. Bu jihat ularning yasaliş tizimidagi affiksatsiya va sintaktik usullari, substantivatsiya, abbreviatsiya, leksik-sintaktik usulda yaqqol aks etadi.

4. Ergonimlar atoqli otlarga xos nominativ, axborot, targ'ibot, estetik, memorial, mulkning taalluqlilik belgisini anglatish, apellyativ va kumulyativ vazifalarni namoyon eta oladi. Ta'kidlash joizki, ergonimlarga xos kumulyativ (yig'ish, to'plash) vazifa barcha turdagi atoqli otlarga xos emas. Jumladan, barcha antroponimlar, astronim, fitonimlar va hokazo onomastik birliklarning hammasi ham ma'lumotni to'plash, uni avloddan avlodga uzatish vazifasini bajara olmaydi.

5. Surxondaryo ergonimikasining qariyb 5/1 qismini ajnabiy so'zlarning tashkil qilishi (rus, ingliz, fransuz, ispan, lotin tiliga oid so'zlarni o'zbekcha so'zlar bilan birga qo'llash holatlari) tadqiqot obyektini lingvomadaniy asoslarda ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Bunda "Sog'liqni saqlash – tibbiyot va salomatlik", "Qishloq xo'jaligi", "Savdo va xizmat ko'rsatish", "Tashish va saqlash", "Ovqatlanish", "Sanoat", "Qurilish", "Axborot-aloqa" semantik guruhlar uchun o'ylab topilayotgan ergonimlarning: mahalliy mentalitetga mosligi, nutq madaniyati mezonlariga muvofiq kelishi, o'zi atab kelayotgan obyektga muvofiqlik darajasini tahlilga tortish katta ahamiyat kasb etadi.

6. MDH davlatlari ergonimikasida *lyuks, elit, ekonom, best, vip* singari varvarizmlarning ishtiroki o'zbek ergonimikasida ham "aks-sado" berishi natijada yashirin qiyosni yuzaga keltiruvchi va raqobatda tengsizlikka da'vo qiluvchi nomlar paydo bo'ldi: *Mantiya lyuks, Pahlavon qurilish lyuks, The best Oltinsoy, The best, Vip brend*. Ergonimlarda bu usul mijozni chaqirishdagi yashirin hiyla hisoblanadi va ushbu xorijiy so'zlar sintaktik qurilmada to'g'ri valentlikni yuzaga keltira olsagina ergonimni muvaffaqiyatli deya baholash mumkin. Biroq nominatorlarning lisoniy bilimsizligi mijozni cho'chitishi, ishonchsizligiga sabab bo'lishi mumkin.

7. Tahlillar o'zlashmali ergonimlarda nominator shaxsan bo'lib qaytgan yoki borish istagida bo'lgan xorijiy el nomi; nominator o'rganayotgan yoki o'rganishni tavsiya qilayotgan tilga oid nom; o'zga madaniyatga xos predmet, makon, qiyofa, voqelik, tushuncha yoki alohida nom (antroponim, mifonim, arxetiplar va hk.); nominator yuritayotgan muassasa, korxonalar, tashkilot va boshqalarning hamkori bo'lgan xorijiy investor nomiga daxldor unurning faolligini ko'rsatdi.

8. Xorijiy tilda qo'yilgan nom tilning sofligiga putur yetkazib qolmasdan, balki jamiyatda milliy tilga hurmatsizlik va bepisandlik kayfiyatini yuzaga keltiradi, ergonimlarning til egalari uchun tushunarsiz o'zga tillarda nomlanishi kishilar bilan kommunikativ aloqa o'rnatilishida to'siq yaratadi.

9. O'z qatlamga oid komponentli va o'zlashma komponentli ergonimlarning sohaviy ixtisoslashgan indikatorlari har ikki turdagi ergonimlar uchun umumiy faol bo'lgan *xizmat* hamda uning o'zlashmadagi ekvivalenti – *servis* leksemalari ekanligi aniqlandi. Qolgan *trans, agro, farm, stroy, med, food* aniqlagichlari esa 8 ta SG ergonimlarining "kalit so'zlari", ya'ni ixtisoslik indikatorini bo'lib xizmat qiladi.

10. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomdan kelib chiqib, 1) xorijiy tilni talab darajasida bilish. Muassasa, tashkilot, korxonalar nomlarini xorijiy nom bilan atashda Davlat xizmatlari agentligi tasarrufida tashkil etilishi lozim bo'lgan malakali mutaxassislardan iborat ishchi guruh maslahatidan foydalanish; 2) o'zbek tili lug'at qatlamining ma'no xususiyatlarini chuqur anglash, o'rganish. Bunda tadbirkorlik subyektlari, tashkilot, muassasa va korxonalarda O'zbek tili izohli lug'atining so'nggi yillardagi nashri bo'lishini shart qilib qo'yish; 3) mahalliy madaniyatning milliy an'analarini hurmat qilish. Bu boradagi cheklovni qat'iylashtirish tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 03/31.03.2021.Fil.78.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕННЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**КУЛТАЕВА ФАЗИЛАТ БАХТИЯРОВНА**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭРГОНИМОВ  
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)**

**Термез – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована под номером B2023.3.PhD/Fil3709 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, английский, русский) размещён на веб-странице Научного совета адресу [www.tersu.uz](http://www.tersu.uz) и на информационно - образовательном портале "ZiyoNET" ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** Махмараимова Шохиста Тухташевна  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Юлдашева Нилуфар Эргашевна  
доктор филологических наук, профессор

Абдиев Муродкосим Болбекович  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** Бухарский государственный университет

Предоставление ученых степеней в рамках защиты диссертации состоится в 9<sup>00</sup> часов «5» 09 2025 году на заседании научного совета PhD 03/31.03.2021. Fil.78.04 при Термезском государственном университете (Адрес: 190111, город Термиз, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрирована под номером 312). Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-74-55

Автореферат диссертации разослан «24» 08 2025 года  
(реестр протокола рассылки № 64 от «24» 08 2025 года).



**П.У.Бакиров**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

**З.Б.Умуркулов**  
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам, доцент

**Ш.Ёкубов**  
Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению ученых степеней, кандидат филологических наук, доцент

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация к докторской диссертации (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В последнее время бурное развитие новых методов и средств экономического развития порождает необходимость в мировом языкознании рассматривать эргонимы как прагматически значимый феномен и как явление исключительной лингвокультурологической обоснованности. В результате растет число исследований, посвященных углубленному изучению возможности культурной информации, реализуемой в разрезе новых научных парадигм, как внутренней, так и внешней формой языковых онимов, вызванных социально – экономическими факторами предприятий различных функциональных специальностей (учебных заведений, бизнес-объединений, торговых объектов, объектов культуры, спортивных сооружений, туристических агентств и т.д.).

В мировой ономазиологии и ономастике антропонимы и топонимы рассматриваются как элементы, относящиеся к центральной категории онимов, а эргонимы – как периферийный (краевой) уровень топонимической категории. Тем не менее, эргонимы представляют собой прагматически эффективную, восприимчивую к изменениям, динамически изменяющуюся единицу в современном топонимическом ландшафте как онимы, способные концентрировать в себе различные проявления построения, передавать культурную информацию в различных формальных решениях (буквенных, графически, цветовых палитрах, числах, символических логотипах) и, наконец, проявлять высочайший уровень интеграции культур. Следовательно, спрос на исследования, направленные на лингвистически адекватную оценку имеющейся в нем визуально-гибридной природы, а также на раскрытие концептуальных основ «жизнеспособности» на пересечении культур, остается высоким.

В период независимости, как и во всех областях, большое внимание уделялось науке о названиях – топонимике. Были созданы топонимические комиссии, централизованная Топонимическая служба, приняты специальные законы, охватывающие такие процессы, как сохранение, изменение и анализ географических названий с научной и практической точек зрения<sup>28</sup>. Так как «Каждый народ, каждое независимое государство должны уделять первоочередное внимание вопросам обеспечения своих национальных интересов, в связи с этим – сохранению и развитию своей культуры, вековых ценностей, родного языка»<sup>29</sup>. Изучение эргонимов, относящихся к геоэкономическому, национально-культурному ландшафту нашей страны, может послужить основой для проведения всесторонних исследований культуры, традиций, верований, образа жизни, взаимодействия с другими культурами.

---

<sup>28</sup> Закон Республики Узбекистан «О государственном языке» (Т., 1989), Закон Республики Узбекистан О наименованиях географических объектов. – Т., 2011. 12 октября (Свод законов Республики Узбекистан. 2011г., № 41. Статья 448).

<sup>29</sup> Указ Президент Республики Узбекистан «О качественном укреплении авторитета и о радикальном повышении престижа и позиции узбекского языка как государственного» // <http://lex.uz/docs/4561730>.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4997 от 13 мая 2016 года «Об учреждении Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного», № УП-6084 от 20 октября 2020 года, «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране», в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4997 от 4 октября 2019 года «О широком праздновании тридцатилетия принятия Закона Республики Узбекистан “О государственном языке”», а также иных нормативных правовых актов, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники Республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно–просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В научных выводах Б.А.Ларина, Ю.А.Яковлевой, А.М. Емельяновой эргонимы, отмеченные как элемент городского языка, изучались структурно-семантически, деривационно, лингвокогнитивно, лингвокультурно, прагматически и лингвопоэтически. В 60-е годы XX века данная тема была отражена в работах М.Л.Щетинина, Б.З.Букчиной и Г.А.Золотовой, А.В.Суперанской, С.А.Копорского, М.Н.Морозовой, Л.В.Щетина, В.Д.Бондалетова, в конце XX – начала XXI века эта тема становится все более актуальной, это доказывают работы А.В.Беспалова, С.В.Земсковой, Е.С.Отина, Т.Н.Алиевой, Н.В.Носенко, Ф.Ф.Алистановой, М.Г.Курбановой, Е.С.Бутаковой, А.М.Емельяновой, Ман Шу, М.В.Китайгородской, И.В.Крюковой, М.Е.Крючковой, Н.Н.Розановой, Т.П.Романовой, З.Т.Танаевой, А.К.Галковского<sup>30</sup>.

---

<sup>30</sup> Подольская Н.В. Словарь русской онамастической терминологии. – М.: Наука, 1978. — 200 с.; Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. – М.: Просвещение, 1977. – 224 с.; Яковлева Е.А. Ономастическое пространство как составная часть «языка города» и его основные единицы (на примере эргонимов г. Уфы)//Вестник Башкирского университета. 2006. – № 3. – С. 90– 93; Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтничного города (на примере деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы: Автореф. дисс. ...канд. фил. наук. – Уфа, 2007. – 24 с.; Шимкевич Н.В. Русская коммерческая эргонимия: прагматический и лингвокультурологический аспекты: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2002. – 23 с.; Алиева Т.Н. Аббревиатурные неологизмы современного русского языка конца 90-х годов XX–XXI веков: семантико-деривационный аспект: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. – Спб., 2003. – 34 с.; Крючкова М.Я. Многокомпонентные эргонимы в аспекте орфографии: проблема совершенствования нормы правописания: Дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2003. 199 с.; Крюкова И.В. Рекламное имя: от изобретения до прецедентов: Дисс. ...д-ра филол. наук. – Волгоград, 2004. – 228 с.; Трифонова Е.А. Названия деловых объектов: семантика, прагматика, поэтика: на материале русских и английских эргонимов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – 24 с.; Емельянова А.М. Эргонимы в лингвистическом ландшафте полиэтничного города (на примере названий деловых, коммерческих, культурных, спортивных объектов г. Уфы): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –

В узбекском языкознании лингвокультурные и лингвопрагматические аспекты эргонимов раскрыты Д.Худайбергеновой, Д.Лутфуллаевой, М.Сапарниязовой. Но работ, посвященных освещению лингвокультурного ландшафта территориальной эргоники Узбекистана, пока недостаточно. Ж.Н.Сиддиков же изучал эргонимы узбекского и английского языков в лингвистическом контексте<sup>31</sup>. Актуальность данного исследования

---

